



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UDK: 618.4-09

BO'LAJAK TERAPEVTLARNI SIMULYATSION TA'LIM JARAYONIGA JALB ETISHNING MOHIYATI VA TUZILISHI

X.Quchqarov-lavozim, kafedra, Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon, O'zbekiston.

kuchkarovhumoyun@gmail.com

(ORCID : 0000-0003-1022-2216)



Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak terapevtlarni simulyatsion ta'lim jarayoniga jalb etishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Simulyatsion ta'limning mohiyati, uning terapevtik yo'nalishdagi talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni hamda samaradorlik omillari ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, maqolada simulyatsion ta'lim jarayonining tuzilmasi, pedagogik shart-sharoitlari va o'qitish texnologiyalarining integratsion xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, simulyatsion yondashuv terapevtik amaliyotga tayyorgarlik darajasini oshirish, klinik tafakkurni rivojlantirish hamda talabalarda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: simulyatsion ta'lim, bo'lajak terapevtlar, tibbiy ta'lim, klinik tafakkur, kasbiy kompetensiya, amaliy ko'nikma, pedagogik texnologiyalar.

ПРИВЛЕЧЕНИЕ БУДУЩИХ ТЕРАПЕВТОВ К ПРОЦЕССУ СИМУЛЯЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ: СУЩНОСТЬ И СТРУКТУРА

Х. Кучкаров — должность, кафедра, Андижанский государственный медицинский институт, Андижан, Узбекистан

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты привлечения будущих терапевтов к процессу симуляционного обучения. Раскрыта сущность симуляционного образования, его роль в формировании профессиональной компетентности студентов терапевтического направления, а также проанализированы факторы, влияющие на его эффективность. Кроме того, в статье рассмотрена структура симуляционного учебного процесса, педагогические условия и интеграционные особенности применяемых образовательных технологий. Результаты исследования показывают, что симуляционный подход играет важную роль в повышении уровня подготовки к терапевтической практике, развитии клинического мышления и формировании у студентов компетенции самостоятельного принятия решений.

Ключевые слова: симуляционное обучение, будущие терапевты, медицинское образование, клиническое мышление, профессиональная компетентность, практические навыки, педагогические технологии.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

ENGAGING FUTURE THERAPISTS IN THE SIMULATION-BASED LEARNING PROCESS: ESSENCE AND STRUCTURE

Kh. Kuchkarov — position, department, Andijan State Medical Institute, Andijan,
Uzbekistan

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of engaging future therapists in the process of simulation-based learning. The essence of simulation education, its role in shaping the professional competence of students in the therapeutic field, and the factors influencing its effectiveness are analyzed. Furthermore, the article discusses the structure of the simulation learning process, pedagogical conditions, and the integrative features of applied educational technologies. The results of the study show that the simulation approach plays a crucial role in improving preparedness for therapeutic practice, developing clinical thinking, and fostering students' competence in independent decision-making.

Keywords: simulation-based learning, future therapists, medical education, clinical thinking, professional competence, practical skills, pedagogical technologies.

Kirish.

Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, klinik fikrlashni rivojlantirish va bemor bilan muloqot madaniyatini yuksaltirish masalalari alohida e'tibor talab etadi. Bugungi kunda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak terapevtlarni tayyorlash jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki ularni amaliyotda qo'llay olish salohiyatini ham rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, simulyatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi eng muhim innovatsion yondashuvlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Simulyatsion ta'lim – bu real klinik vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalarning amaliy va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi o'qitish usuli bo'lib, u xavfsiz muhitda xatolardan o'rganish imkonini beradi. Bunday yondashuv tibbiy xodimlar tayyorlashda an'anaviy o'qitish usullarining cheklovlarini bartaraf etadi hamda ta'limning interaktiv, refleksiv va kompetensiyaga asoslangan shaklini ta'minlaydi.

Bo'lajak terapevtlarni simulyatsion ta'lim jarayoniga jalb etishning mohiyati ularning kasbiy kompetensiyasini, klinik tafakkurini va amaliy tayyorgarligini tizimli shakllantirishda namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonning tuzilishi esa ta'lim maqsadlari, simulyatsion vositalar, baholash mezonlari va pedagogik shart-sharoitlar o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikka asoslanadi.

Shu boisdan, terapevtik yo'nalishda o'qiyotgan talabalarni simulyatsion muhitda faol ishtirok ettirish ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatida yuqori darajadagi tayyorgarlik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada bo'lajak terapevtlarni simulyatsion ta'lim jarayoniga jalb etishning nazariy asoslari, tuzilmasi hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. [1, 75].

Tadqiqot metodologiyasi.

Kasbiy kompetensiya - bu ish vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun o'lchanishi va baholanishi mumkin bo'lgan o'zaro bog'liq bilim va ko'nikmalar to'plamidir. Ular nafaqat nazariy va empirik bilimlarni, balki bo'lajak mutaxassislarining kasbiy vazifalarni bajarishdagi xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi shaxsiy xususiyatlarini ham o'z ichiga olishi mumkin.

Tadqiqotda taqqoslama tahlil, pedagogik kuzatuv, so'rovnoma va tajriba-sinov usullari qo'llanildi. O'zbekiston va xorijiy tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan simulyatsion ta'lim modellari tahlil qilindi. Ma'lumotlar asosida terapevtik yo'nalishda o'qiyotgan 3-4-bosqich talabalarining o'quv jarayoniga simulyatsion mashg'ulotlarni integratsiya qilishning samaradorligi baholandi.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, faol o'qitish texnologiyalari, shuningdek, Dewey, Kolb, va Schönarning tajribaviy o'qitish nazariyalari tashkil etdi. [2, 12].

Muhokama.

Bo'lajak terapevtning asosiy kasbiy kompetensiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, u o'z vazifalarini shunchalik samarali, sifatli va tez bajaradi. Har bir mutaxassislik va lavozim uchun o'zining kasbiy ko'nikma va malakalari muhimdir, shu jumladan tibbiyot soxasi mutaxassisi o'z mutaxassisligi bo'yicha nazariy bilimlarni mukammal o'zlashtirgan, amaliy ko'nikmalari professional darajada rivojlangan, tibbiyotning barcha soxalarini yaxshi o'zlashtirgan, bemorlar psixologiyasini to'la taxlil qila oladigan, bemorlar hamda xodimlar bilan muloqot qila olishi qobiliyatlari rivojlangan bo'lishi kerak. [6, 18] Rahbarning muhim kasbiy kompetensiyasi esa jamoa ishini tashkil etish, rejalashtirish va tahlil bilan ishlash qobiliyatidir.

Shifokor kompetensiyalariga nafaqat kasbga bevosita aloqador bo'lgan bilimlar, balki ish vazifalarini bajarishga bilvosita ta'sir ko'rsatadigan bilimlar ham kiradi. Masalan, kiyinish va muomala madaniyati, odob-ahloq qoidalariga rioya qilish qobiliyati terapevt uchun o'z sohasining mutaxassisi bo'lishdan kam emas. [2, 14]:

Bo'lajak terapevtning kasbiy kompetentligi ko'p omilli hodisa bo'lib, shifokorning nazariy bilimlari tizimi, amaliy ko'nikmalarni rivojlanganligi va ularni muayyan shifokorlik vaziyatlarda qo'llash usullari, shuningdek, madaniyatining integrativ ko'rsatkichlari (nutqi, muloqot uslubi, o'ziga va o'z faoliyatiga, bilim va ko'nikmalarining tegishli sohalariga munosabati va boshqalar) ni o'z ichiga oladi.

Shifokorni kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish muassasa, uning raxbari hamda xodimlar uchun ham muhim. Xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini oshirishning asosiy maqsad va vazifalari jamoaning umumiy darajasini yaxshilash, muassasaning foydasi va raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Shifokorning kasbiy kompetentlikni asoslash yo'nalishidagi tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, turli olimlar shifokor kompetensiyasini ham miqdor ham sifat mazmunini turlicha berishadi, shu bilan bir qatorda yetarli darajada umumiy jihatlar ham mavjud: ba'zi hollarda tajriba va bilim asos qilib olinsa, boshqa hollarda mavhum "savollar doirasi" tushunchasi asos qilib olinadi [4, 77].

Bo'lajak terapevtlarining kasbiy kompetentligi umumlashtirilgan tuzilmasi 3 ta asosiy komponentni o'z ichiga oladi, bular: motivatsion (shifokorni kasbiy faoliyatda o'zini o'zi anglashi va rivojlantirish), kognitiv (kasbiy kompetensiyalarga egalik, tajriba va malaka) va shaxsiy (kasbiy faoliyatda ahamiyatga ega bo'lgan shifokorni shaxsiy fazilatlarini).

Yuqoridagi komponentlar bo'lajak terapevtning kasbiy kompetentlik jarayoni modeliga asos bo'ldi. Shifokor bemorlarni davolash jarayonida turli xil funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda turli faoliyatlarni amalga oshiradi, ularning har biri ma'lum motivlarni (o'z vazifalarini bajarishga intilish, unga kasbiy qadriyat sifatida qarashi, o'z faoliyati davrida malakasini oshirib borish istagi), bilimlarni (faoliyatning ushbu turining o'ziga xos xususiyatlari haqida), ko'nikmalarni (tegishli faoliyatni amalga oshirish qobiliyati) va shaxsiy fazilatlarini (mutaxassisligi bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarini bilish) talab qiladi. Shuning uchun nafaqat kasbiy kompetentlik, balki bo'lajak terapevt faoliyatining funksional tarkibiga javob beradigan kompetensiyalarning alohida turlari haqida gapirish uchun barcha asoslar mavjud [5, 154].

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, simulyatsion ta'lim bo'lajak terapevtlarning kasbiy shakllanishida samarali vosita hisoblanadi. Bu yondashuv an'anaviy o'qitishning passiv shakllariga nisbatan yuqori motivatsiya va faol ishtirokni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari xalqaro tajriba (AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya) bilan solishtirilganda, o'xshash ijobiy tendensiyalar kuzatildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston oliy tibbiyot ta'lim tizimida simulyatsion ta'limni keng joriy etishda infratuzilma, o'qituvchilar malakasi va texnik vositalarning yetarli emasligi muammosi mavjud. Buni bartaraf etish uchun o'quv dasturlariga moslashtirilgan simulyatsion modullarni ishlab



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

chiqish, o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash va baholashning kompetensiyaga asoslangan mezonlarini joriy etish tavsiya etiladi.

Xulosa.

Bo‘lajak terapevtlarni simulyatsion ta‘lim jarayoniga jalb etish ularning klinik tafakkurini, amaliy ko‘nikmalarini va kommunikativ salohiyatini rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, simulyatsion yondashuv terapevtlarni zamonaviy tibbiy amaliyotga tayyorlashda yuqori samaradorlikka ega. Shu sababli, tibbiy oliy ta‘lim muassasalarida simulyatsion texnologiyalarni tizimli ravishda joriy etish va ularni o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylantirish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov, A.A. (2021). *Tibbiyot ta‘limini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari*. Toshkent: Ilm nashriyoti.
2. Yahshiboyeva Gulbakhor Oybek kizi Парамедицинада инглиз тили амалий машғулотларида тиббиётга оид терминларни ўргатиш методикаси, XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASICALMI Дж. Создание университетов мирового класса : пер. с англ. М. : Весь Мир, 2009. 132 с.
3. Kopaysinovna, K. S. (2022). Age-related Characteristics and Teacher's Skills of Introducing Artistic Works to Preschool Children. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.5 Pedagogical sciences).
4. Altbach P.G., Reisberg L., Rumbley L.E. Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution. – UNESCO, 2009.
5. Azimova D.S. Oliy ta‘lim tizimida Boloniya jarayoni: muammo va yechimlar. – “Ilm-fan va taraqqiyot” jurnali, 2021, №2. – B. 48–52.
6. G.O.Yaxshiboyeva. Features Of The Methodology Of Teaching Paramedical Terms In Practical Classes In A Medical Institutions. (Frontiers in Health Informatics ISSN-Online: 2676-7104 13 (3), 5)